parallel konstruksiyalar dramatik effektni oshirib, muloqotning ekspressiv qatlamini faollashtiradi. Bunday vaziyatda qo‘shma gap nafaqat “mantiqiy izoh”, balki “uslubiy ta’sir” mexanizmi sifatida ham ishlaydi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dialogik diskursda qo‘shma gaplar faqat ko‘p tarkibli sintaktik tuzilma bo‘lib qolmay, balki muloqotning semantik izchilligi va pragmatik samaradorligini ta’minlaydigan muhim diskursiv birlik sifatida namoyon bo‘ladi, chunki qo‘shma gaplarning bo‘laklari o‘rtasidagi sabab-natija, shart, qarama-qarshilik, izohlash kabi munosabatlar dialogning mantiqiy rivojini boshqaradi hamda replikalararo semantik ko‘prikni mustahkamlaydi. Shuningdek, nutqiy aktlar nazariyasi doirasida qaralganda, qo‘shma gaplar illokutiv maqsadni (so‘rash, buyurish, taklif qilish, va’da berish, rad etish va boshqalar) aniqroq yoki ta’sirchanroq ifodalashga xizmat qilishi, perlokutiv jihatdan esa tinglovchini muayyan xulosa va munosabatga yetaklashi mumkinligi ayon bo‘ladi.

Demak, semantik-pragmatik yondashuv dialogik diskursdagi qo‘shma gaplarni “shakl-mazmun-maqsad” uchligi asosida tahlil qilish imkonini berib, qo‘shma gap bo‘laklarining qanday axborot uzatayotgani, u qanday anglanayotgani hamda suhbat kontekstida qanday kommunikativ vazifani bajarishini kompleks tarzda ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Raupova L.R. Qo‘shma gap diskursning tarkibiy qismi sifatida. Monografiya, Toshkent, “MALIK PRINT CO”, 2021, 192-bet.

[2]. Jumaqulova S.X. Illokutiv akt va ularning turlari. “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar” tezislar to‘plami, 2023.

[3]. Bakhrodova D. Diskursiv-semantik tahlilning nazariy-metodologik asoslari. ”Lingvospektr” jurnali, 2021, 1-son, 38–47; 64–72; 79–83-betlar.

[4]. Nurmonov A. va boshq. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2001, 500-bet.

[5]. Abdurahmonov G‘. Qo‘shma gap sintaksisi asoslari. Toshkent, “Fan”, 1958, 284-bet.

[6]. Safarov Sh. Nutqiy aktlar va pragmalogiya, Toshkent, “Fan”, 1985, 210-bet.

[7]. Austin J.L. How to Do Things with Words, Cambridge: Harvard University Press, 1962.

[8]. Searle J.R. Speech Acts, Cambridge: Cambridge University Press, 1969.

[9]. Matn tilshunosligi. Darslik, Buxoro, Buxoro davlat universiteti nashri, 2015.

[10]. Ostonov B. Qo‘shma gap tarkibidagi bog‘lovchilar ta’siri. Nukus, Qoraqalpoq davlat universiteti nashriyoti, 2018, 150-bet.

[11]. Makarov M.L. Diskurs nazariyasining asoslari. Moskva, “Gnozis”, 2003, 400-bet.

[12]. Kizi S.B.Y. (2022). Linguo-cultural characteristics of speech etiquette occurring in discourse. Current Research Journal of Philological Sciences, 3(11), p. 59–63.

[13]. Bobojonova S. (2022). Pragmatic interpretation of educational discourse and expression of dialogic discourse in the communication process.

Daulanova Xolida Iskandarovna (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Profi Universiti dotsenti v.b.; E-mail: daulanovakholida@gmail.com)

INGLIZ GISTOLOGIK TERMINOLOGIYASIDAGI DEVERBAL ASOSLI MURAKKAB TERMINLAR

Annotatsiya. *Jahon tilshunosligida tibbiy terminlar bilan bog‘liq masalalar muhim o‘rin tutadi. Gistologik terminlarning chuqur o‘rganilishi ularni tashkil etuvchi yunon-lotin termin-elementlarini aniq tasniflash, semantik qirralarini ochib berish va termin hosil qilish masalalarini keng yoritish imkonini beradi. Quyidagi maqolada deverbal asosli murakkab terminlarning komponentlari borasida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *terminologiya, gistologiya, tibbiyot, ingliz tili, murakkab termin, yunon-lotin, termin-element, deverbal asos, tahlil.*

Дауланова Холида Искандаровна (доктор философии по филологическим наукам (PhD); и.о. доцент, Profi University)

СЛОЖНЫЕ ТЕРМИНЫ С ДЕВЕРБАЛЬНОЙ ОСНОВОЙ В АНГЛИЙСКОЙ ГИСТОЛОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация. *Вопросы, связанные с медицинскими терминами, занимают важное место в мировой лингвистике. Глубокое изучение гистологических терминов позволяет четко классифицировать греко-латинские терминоэлементы, составляющие эти термины, выявляя их семантические аспекты и широко охватывая вопросы терминообразования. В данной статье рассматриваются компоненты сложных терминов с девербальной основой.*

Ключевые слова: *терминология, гистология, медицина, английский язык, сложный термин, греко-латинский, терминоэлемент, девербальная основа, анализ.*

Daulanova Kholida Iskandarovna (Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD); Acting Associate Professor at Profi University)

COMPLEX TERMS WITH A DEVERBAL ROOT IN ENGLISH HISTOLOGICAL TERMINOLOGY

Annotation. *In global linguistics, issues related to medical terms occupy an important place. The in-depth study of histological terms makes it possible to accurately classify the Greek-Latin term-elements that form them, to reveal their semantic aspects, and to shed light on the issues of term formation. The following article discusses the components of complex terms with a deverbal basis.*

Key words: *terminology, histology, medicine, English, complex term, Greek-Latin, term-element, deverbal root, analysis.*

Kirish. Lotin tilining vositachi, mediator sifatidagi o‘rni yaxshi ma’lum. U nafaqat fan tilini lotin leksemalari va so‘z yasovchi elementlarni qo‘shish bilan boyitish uchungina emas, balki lotinlashgan yunon o‘zlashtirma so‘zlari yordamida rivojlanishi uchun ham manba bo‘lib xizmat qilgan. Ilmiy til nafaqat zarur bo‘lgan yunon terminlarini, balki ulardan asta-sekin chiqariladigan termin elementlarini, so‘ngra ularning birikish yo‘llarini hamda ular asosida hosil qilingan tipik modellarni ham o‘z ichiga oladi. Yunon murakkab so‘zlarining ta’siri, ayniqsa, so‘zlarning o‘zaro qo‘shilishi sohasida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Bu yerda yunon va lotin termin-elementlarining bir murakkab birlikda aralashishi adabiy hamda tibbiy lotin tilidan ingliz tiliga o‘tishi kutilmagan hodisa emas. Shunga ko‘ra, zamonaviy tibbiyot terminologiyasida so‘zlarning yasalish sohasi, ikki tillilik eng keng namoyon bo‘ladigan soha bo‘lib, u barcha milliy terminologik tizimlarning o‘ziga xos xususiyatiga aylandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tilshunoslikda terminlarning lingvistik masalalarini yoritishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, mazkur izlanishlar natijasi o‘laroq, terminlarning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Lingvistik tadqiqotlarda ingliz tilidagi mavjud murakkab so‘zlarga A.I. Smirnitskiy, I.V.Arnold, R.S.Ginzburg, G.Marchand, O.Yespersen, R.Kvirk [10;2;4;7;5;12] kabi tilshunoslar tomonidan izchil ta’riflar berilgan. Murakkab terminlarning shakllanishi, ularning yasalish xususiyatlari bo`yicha muammolar O.D.Meshkov, I.I.Sreznevskiy, S.A.Vengerova [8;11;3] singari olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. O‘zbek tilshunosligida tibbiyot terminlarining lingvistik xususiyatlari masalalari A. Husanov, A.Qosimov, Z.Mirahmedova, F.Abdulxairova, A.Madvaliyev singari tadqiqotchilarning ishlarida atroflicha yoritilgan [14;13;9;1;6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz gistologik terminologiyasidagi murakkab terminlarni aniqlash muammosi anchagina murakkab hisoblanadi. Ushbu muammoning murakkabligi analitik tillardagi murakkab so‘zlarning tarkibiy qismlarini ajratish imkonini beruvchi shakliy belgilarini topish qiyinligi bilan izohlanadi va murakkab so‘zga yondashuv turli holatlarda, masalan, so‘z yasash yoki morfologik jihatdan amalga oshiriladi. Shunga ko‘ra, mavzuni yoritishda deskriptiv, morfologik, shuningdek, tarixiy-etimologik, tavsifiy, komponent tahlil, semantik hamda lingvostatistik usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ingliz gistologik terminologiyasida otlarning lotin tilidan o‘zlashgan deverbal asoslari son jihatdan juda ko‘p emas, lekin ular terminologiyada muhim o‘rin tutadi. Mazkur deverbal asoslar gistologiyaning asosini tashkil qiluvchi to‘qimalar genetikasida, sitologiya hamda embriologiyada muhim konseptual tushunchalarni ifodalovchi murakkab terminlar yasash uchun faol xizmat qiladi. Ushbu o‘rinda qo‘llanayotgan “deverbal” so‘zi “fe’ldan hosil bo‘lgan” ma’nosini anglatadi”. Demak, deverbal otlar fe’l yoki fe’lli birikmalardan hosil bo‘lgan otlar bo‘lib, ular grammatik jihatdan fe’l emas, balki faqat ot sifatida namoyon bo‘ladi. Ular fe’ldan yasalgan otlar, gerundiy va infinitivlardan farqlanadi, chunki gerundiy va infinitivlar fe’l kabi harakat qiladi.

Ma’lumki, tilda otlarning shakllanishi nominalizatsiyaning bir turi hisoblanadi. Masalan, ingliz tilidagi “tashkilot” (organisation) oti “tashkil qilmoq” (to organize) fe’lidan, “kashfiyot” (discovery) oti esa “kashf qilmoq” (to discover) fe’lidan kelib chiqqan. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, fe’ldan yasalgan otlar va deverbal otlar o‘rtasida farqlanish kuzatiladi. Fe’ldan yasalgan otlar mavhum, sanalmaydigan otlar hisoblanadi. Deverbal otlar morfologik jihatdan fe’l bilan bog‘liq bo‘ladi. Ular sof turdosh otlar kabi mavqega ega. Fe’ldan yasalgan otlar ham, deverbal otlar ham fe’llardan hosil bo‘ladi, lekin fe’ldan yasalgan otlar mavhum, sanalmaydigan, deverbal otlar esa oddiy hodisaligi bilan farqlanadi.

Murakkab terminologik so‘zlarni o‘z argumentlari yoki sirkonstantlari bilan birga undaydigan fe’llar doirasi juda keng emas. Murakkab terminlar tarkibida deverbal asosiy komponentlar suffikslar bilan, masalan, *secretion, formation, secretory, sensory* kabi yoki *fusiform, piriform, filiform, reniform* kabi negizlar bilan murakkablashadi.

Odatda, yunon namunasi bo‘yicha *-o-* unli bog‘lovchi (interfiks) bilan yasalgan eng murakkab termin-neologizmlar ham bir xil shaklga keltirilgan. Masalan: *dipl+o+some, sarc+o+plasma, haem+o+globin, granul+o+cyte, hist+o+logy, hist+o+cyte, hist+o+genesis* kabi. Lotin ***-i-*** unli bog‘lovchisi (interfiks)

esa termin – neologizmlarda unchalik keng tarqalmagan. Masalan: *bacill+i+form, lamell+i+form, digit+ i+form*.

Terminologik tipdagi murakkab so‘zlarda lotin tilidan kelib chiqqan otlarning deverbal asoslaridan eng mahsuldori *-form-* termin-elementi bo‘lib, mazkur element “shakllantirmoq” ma’nosini bildiradi. Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rish mumkinki, mazkur termin-element, asosan, lotin tilidan kelib chiqqan nomlash asoslari bilan birikish hosil qilmoqda. Masalan:

•*fusiform (fus+i+form)=urchuqsimon (lot. fusus – urchuq);*
•*piriform (pir+i+form) = noksimon (lot. pyrus – nok);*
•*filiform (fil+i+form) = ipsimon (lot. filia – ip);*
•*bacilliform (bacill+i+form) = tayoqchasimon (lot. bacillus – tayoqcha);*
•*reniform (ren+i+form) = buyraksimon (lot. renis – buyrak);*
•*digitiform (digit+i+form) = barmoqsimon (lot. digitus – barmoq);*
•*lamelliform (lamell+i+form) = plastinkasimon (lot. lamina – plastinka);*
•*glanduliform (glandul+i+form) = bezsimon (lot. glans – boshcha, bez).*

Ushbu turdagi kompozitlarda undovchi fe’l bilan aloqa to‘liq buzilib ketmaydi, lekin u kamroq seziladi. Asosiy komponent o‘z-o‘zidan muhim ahamiyat kasb etadi va shu ma’noda aniq semantika va strukturaga ega bo‘lgan so‘z yasovchi birlik maqomiga ega bo‘ladi. Unga tegishli fe’l orqali olgan nomning ahamiyatliligi yo‘qoladi, unga standart ma’no beriladi va bu uni maxsus terminologik birlik – termin-element sifatida tavsiflaydi.

Gistologik terminologiyada lotin tilidan kelib chiqqan onomasiologik asoslardan tashqari, jarayon va harakatlarni ifodalash uchun yunon fe’llariga asoslanuvchi komponentlar ham faol qo‘llaniladi. Terminologik elementlar sifatida mazkur komponentlarning mavjudligi ularga kengaytirilgan terminologik qator yasash imkonini beradi, zarur bo‘lsa, ular kengaytirilishi ham mumkin. Ushbu komponentlar, asosan, butun murakkab majmuaga harakat ma’nosini beruvchi yunon formantlar bilan hosil qilinadi.

Lotin va yunon deverbal asoslarining ro‘yxatini va ular yordamida hosil qilingan murakkab terminlar sonini taqqoslash yunon asos komponentlarining lotin asos komponentlaridan ustunligini ko‘rsatib, ularning xalqaro terminologiya fondiga kirishini ta’minlagan. Ularning orasida, *-gen, -genesis, -lyso, -lysis, -pathy, -kinesis, -trophy, -phage* kabi termin-elementlar eng mahsuldorlari hisoblanadi. Masalan: *cytogen, heterogenesis, lysosome, haemolysis, homeopathy, karyokinesis, phagotrophy, phagocytosis.*

Shuningdek, ba’zi termin-elementlar mavjudki, ular ko‘p komponentli terminlar hosil qilshda faol ishtirok etadi. Masalan, 4 komponentli terminlar:

•*heterophagolysosome=heter+o+phag+o+lys+o+some;*
•*crinophagolysosome=crin+o+phag+o+lys+o+some.*

Yoki 3 komponentli terminlar:

•*pseudolysogeny=pseud+o+lys+o+geny;*
•*heterolysosome=heter+o+lys+o+some.*

Xuddi otlarda bo‘lgani kabi, murakkab sifatlarning onomasiologik asoslariga turtki beruvchi fe’llar doirasi ham chegaralangan. Gistologik terminologiyada sifatlarning deverbal asoslari kam mahsuldor bo‘lib, ular hosil qilgan murakkab terminlar soni ko‘pchilikni tashkil qilmaydi. Bularning orasida eng mahsuldori yaratuvchi, hosil qiluvchi ma’nolarini anglatadigan *-genic* termin-elementidir. Bunga misol qilib, *pathogenic, aerogenic, karyogenic, allogenic* kabi terminlarni keltirish mumkin.

Sifatlarning deverbal asoslari suffikslar orqali yasaladi: *-ic, -al, -ous*. Yunon tilida asosiy komponentlar ***-ic*** suffiksi bilan belgilanadi. Ushbu komponentlar bir negizli ot asoslari bilan bitta zanjirni tashkil qiladi: *-graphy=-graphic; -lysis= -lytic; -pepsia= -peptic; -stasis= -static; -trophy= -trophic.*

Xulosa. Murakkab terminlardagi deverbal asosli komponentlarning tahlil natijalariga ko‘ra, ingliz gistologik terminalogiyasida yunon va lotin tillaridagi sifatlarning deverbal asoslari (7 ta) otlarining deverbal asoslariga nisbatan kam mahsuldor ekanligi aniqlandi. Shuningdek, yunon otlarining deverbal asoslari (27 ta) lotin otlarining deverbal asoslari (4 ta)ga nisbatan ustun ekanligi namoyon bo‘ldi. Yunon otlarining deverbal asoslari orasida eng mahsuldorlari: *-gen, -genesis, -lyso, -lysis, -pathy, -kinesis, -trophy, -phage* kabi termin-elementlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Абдулхаирова Ф.И. Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс., Тошкент, 2021, 60-бет.

(2). Arnold I.V. The English Word. Москва, 1986, 285 p.

(3). Венгерова С.А. Сложные слова как способ создания образности в художественном произведении. Проблемы лексической и словообразовательной семантики в современном английском языка. Межвузовский сборник научных трудов. Пятигорск, изд-во ПГЛУ Пятигорск, 1986, с. 28–36.

(4). Ginzburg R.S. A course in modern English lexicology. Москва, 1966, 274 p.

(5). Jespersen O.A. Modern English Grammar on Historical Principles. London, 1st Edition, 1954, 1024 p.

(6). Мадвалиев А. Тиббиёт терминологиясининг соҳавий ва изоҳли луғатларда берилишига доир. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.

(7). Marchand H. The categories and types of present-day English word-formation: a synchronic-diachronic approach. München, Verlag C.H.Beck. Second edition, 1969, 545 p.

(8). Мешков О.Д. Словосложение в современном английском языке. Москва, 1985, 187 с.

(9). Мираҳмедова З. Ўзбек тили анатомик терминологияси. Филол. фан. номз. ... дисс., Тошкент, 1994.

(10). Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. Москва, 1956, 260 с.

(11). Срезневский И.И. Замечания об образовании слов из выражений. Санкт-Петербург, тип. Имп. Акад. наук, 1873.

(12). Quirk R., Greenbaum S., Leech G. and Svartvik F. A grammar of contemporary English. London, Longman Group Ltd, 1972, 922 p.

(13). Қосимов А. Ўзбек тилида тиббий атамаларнинг ҳосил бўлиш усуллари. Филол. фан. д-ри ... дисс., Тошкент, 1984.

(14). Хусанов А. Название болезней и их симптомов в узбекском языке. Дисс. ... канд. филол. наук, Ташкент, 1982.

Xolova Madina Boboqulovna (Buxoro davlat Tibbiyot instituti Xorijiy tillar fakulteti "Ingliz tili" kafedrasi o'qituvchisi; E-mail: xolova.madina@bsmi.uz; ORCID ID 0009-0002-3331-8958)

VERBAL TIL VA MADANIY KODLAR: LINGVOSEMIOTIK TAHLIL

Annotatsiya. *Mazkur maqolada verbal til madaniyatning asosiy (birlamchi) semiotik tizimi sifatida talqin qilinib, uning boshqa madaniy va lingvokultural kodlar bilan o'zaro munosabati lingvosemiotik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot Y.M.Lotman va Tartu–Moskva semiotika maktabi nazariy qarashlariga tayangan holda madaniyatni ko'p kodli semiotik makon sifatida talqin etadi. Maqolada madaniy va lingvokultural kodlar ikkilamchi modellashtiruvchi tizimlar sifatida ko'rib chiqilib, ularning inson tafakkuri, muloqoti va ma'no hosil qilish jarayonidagi o'rni ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *verbal til, madaniy kod, lingvokultural kod, semiotika, ma'no hosil qilish, etnospecifiklik, madaniy kompetensiya, semiotik makon.*

Холова Мадина Бобокуловна (Бухарский государственный медицинский институт, Факультет иностранных языков, преподаватель кафедры английского языка)

ВЕРБАЛЬНЫЙ ЯЗЫК И КУЛЬТУРНЫЕ КОДЫ: ЛИНГВОСЕМИОТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В данной статье вербальный язык интерпретируется как основная (первичная) семиотическая система культуры, а его взаимосвязь с другими культурными и лингвокультурными кодами анализируется на основе лингвосемиотического подхода. Исследование, опираясь на теоретические взгляды Ю.М.Лотмана и Тартуско–Московской семиотической школы, рассматривает культуру как многокодовое семиотическое пространство. В статье культурные и лингвокультурные коды трактуются как вторичные моделирующие системы, раскрывается их роль в процессах человеческого мышления, коммуникации и порождения смысла.*

Ключевые слова: *вербальный язык; культурный код; лингвокультурный код; семиотика; порождение смысла; этноспецифичность; культурная компетенция; семиотическое пространство.*

Kholova Madina Boboqulovna (ESP Teacher, Bukhara State Medical Institute Faculty of Foreign Languages; E-mail: xolova.madina@bsmi.uz; ORCID ID: 0009-0002-3331-8958)

VERBAL LANGUAGE AND CULTURAL CODES: A LINGUOSEMIOTIC ANALYSIS

Annotation*. This article interprets verbal language as the primary (fundamental) semiotic system of culture and analyzes its interaction with other cultural and linguocultural codes within the framework of a linguosemiotic approach. Drawing upon the theoretical perspectives of Yu.M. Lotman and the Tartu–Moscow School of Semiotics, the study conceptualizes culture as a multi-coded semiotic space. Cultural and linguocultural codes are examined as secondary modeling systems, and their role in human cognition, communication, and meaning-making processes is elucidated*

Keywords: *verbal language, cultural code, linguocultural code, semiotics, meaning-making, ethnospecificity, cultural competence, semiotic space.*

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar masalasi gumanitar fanlarning markaziy tadqiqot obyektiga aylandi. Lingvistika, madaniyatshunoslik, semiotika va kognitiv fanlar kesishgan nuqtada til nafaqat kommunikativ vosita, balki madaniy ma'no ishlab chiqaruvchi mexanizm sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuvda verbal til madaniyatning "suyak" strukturasini tashkil etuvchi asosiy semiotik tizim sifatida namoyon bo'ladi.